

## О‘QUVCHILARDA KASBIY KO‘NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI

Kimsanov Jamshidbek Maxamatrasul o‘g‘li

“UNIVERSITY OF ECONOMICS  
AND PEDAGOGY” NOTM

“ Ijtimoiy gumanitar fanlar” kafedrasi asissenti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yoshlarni mehnatsevar, tashabbuskor, bugungi kun

talablariga javob bera oladigan qilib tarbiyalash, ayniqsa ularda kasb tanlashga ongli munosabatni shakllantirish bugungi kunning muhim talabi ekanligi, kasbga tayyorlash tizimining samaradorligini oshirishning bir qator omillari haqida fikr yuritilgan

**Аннотация:** В данной статье рассматривается, что воспитание молодых людей трудолюбивыми, инициативными, способными отвечать требованиям

сегодняшнего дня, особенно формирование у них осознанного отношения к выбору профессии является важным требованием сегодняшнего дня, а также рядом факторов повышения эффективности. системы профессионального образования.

**Abstract:** This article discusses that raising young people to be hardworking, proactive, capable of meeting the requirements of today, especially the formation of a conscious attitude towards their choice of profession is an important requirement of today, as well as a number of factors for increasing efficiency. vocational education systems.

**Kalit so‘zlar:** kasb tanlash, yoshlarni mehnatsevar, tashabbuskor qilib tarbiyalash,

ongli munosabatni shakllantirish, talab, kasbga tayyorlash tizimi, samaradorlik

Ключевые слова: выбор профессии, воспитание молодежи трудолюбивой и

инициативной, формирование сознательного отношения, востребованности, системы профессиональной подготовки, эффективности

**Key words:** choice of profession, education of hardworking and proactive youth, formation of a conscious attitude, demand, professional training system, efficiency

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilgan ishlar va islohotlar natijasida samarali yutuqlarga erishilmoqda. Yoshlarni har tomonlama kamolotga yetishlarida barcha yo'nalishlar qatorida kasbga tayyorlash ham muhim sanaladi. Kadrlar faoliyatining xilma-xil yo'nalishlarini tadqiq etishga doir ishlarda bo'lajak

mutaxassislarni kasbiy rivojlantirish masalasi ko'plab ishlarning tadqiqot ob'ekti sifatida belgilangan. Yangi O'zbekistonda yoshlar tarbiyasi, ularning bolaligidan boshlab kasbhunarga qiziqishlarini rag'batlantirish borasida ko'plab tajribali tadbirkorlarga biriktirib berilmoqda.

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning yoshlarga yuksak e'tibori natijasida farzandlarimiz har bir sohada jahon miqyosida katta yutuqlarga erishmoqdalar.

"...Ta'lim sohasidagi navbatdagi muhim yo'nalish, bu – yoshlarning zamonaviy kasb-hunar egallashi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat..."

[1]

Pedagogik kuzatishlar shuni ko'rsatadi-ki, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda faqat kasb-hunar maktablari, kasb-hunar kollejlari hamda texnikumlar nazarda tutiladi, degan tushuncha mavjud. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda oliy ta'lim, shuningdek o'quvchining umumta'lim maktabini yakunlab xorijiy davlatlarda kasbiy yoki keyingi bosqich ta'limini davom ettirishi ham nazarda tutiladi. Qamrov jihatidan kasb-hunarga yo'naltirish faoliyati professional yondashuvni talab etadi.

O'quv faoliyati jarayonida o'quvchilarda kasbiy bilimlarni oshirish va ko'nikmalarni rivojlantirish, ularning amaliy tayyorgarligini kuchaytirish dolzarb

pedagogik muammolardan hisoblanadi. Zero, hozirgi zamon jamiyati o'z kasb-kori, sir-asrorlarini mukammal bilgan va o'z ishining natijalari uchun mas'ul, ixtisosligi bo'yicha samarali faoliyat ko'rsata oladigan, mehnat bozorida raqobatbardosh, uzluksiz kasbiy rivojlanishga tayyor mutaxassislarni talab etmoqda. Bizning nazarimizda, bu muammoni bitiruvchilarda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish orqali hal etish mumkin.

2022/2023 o'quv yilidan boshlab umumta'lim muassasalari bitiruvchilari o'z iqtidori va qiziqishlariga mos kasbni tanlab olishi, mehnat bozorida munosib o'rnini topishi, kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi uchun "Kasbga yo'naltirish tizimi" joriy etilgan. Mazkur tizimning maqsadlaridan biri sifatida kasb-hunarga yo'naltirish mazmunini takomillashtirish hamda didaktik resurslaridan oqilona va samarali foydalanish nazarda tutiladi.

Umuman olganda, kasb-hunarga yo'naltirish mazmuni hamda didaktik resurslarning integratsiyalashuvi umumta'lim maktablari o'quvchilarining o'z iqtidori va qiziqishlariga mos kasbni tanlab olishida, mehnat bozorida munosib o'rnini topishi hamda kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishida katta ahamiyatga ega.

O'quvchi yoshlarda kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish bir necha bosqichni o'z ichiga oladi. Bu bosqichlar talabalarning yoshlikdan to kasbga kirishgacha bo'lgan davrini qamrab oladi. Quyida bu bosqichlar haqida batafsil ma'lumot beriladi:

1. Birinchi tanishuv bosqichi:

- Ma'lumot berish: O'quvchilarga turli kasblar haqida umumiy tushuncha beriladi.

Bu bosqichda ular kasblarning mohiyati va ularning jamiyatdagi o'rnini haqida bilim olishadi.

- Motivatsiya: O'quvchilar kasblarga qiziqish uyg'otadigan materiallar (video, maqola, suhbat) bilan tanishtiriladi.

2. Kengaytirilgan tushuncha va qiziqishlarni rivojlantirish:

- Kasbga yo'naltirish dasturlari: Maxsus darslar, seminarlar va treninglar orqali o'quvchilarga ma'lum kasblar haqida chuqurroq ma'lumot beriladi.

- Ijtimoiy-madaniy tadbirlar: Kasb festivallari, kasb ko'rgazmalari va karyera kunlari orqali o'quvchilarda kasblarga bo'lgan qiziqish oshiriladi.

### 3. Amaliy mashg'ulot va tajriba orttirish:

- Laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlar: O'quvchilarga nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyati beriladi.

- Amaliyot: Maktab yoki kasb-hunar kollejlariida ishlab chiqarish amaliyoti tashkil

qilinadi. Bu bosqichda o'quvchilar haqiqiy ish muhitida kasbiy ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

### 4. Kasbiy ixtisoslashuv:

- Maxsus kurslar va modullar: Ma'lum bir kasb bo'yicha chuqurlashtirilgan kurslar

orqali o'quvchilar malaka va ko'nikmalarini oshiradilar.

- Mentorlik va murabbiylik: Kasbiy soha vakillari tomonidan berilgan maslahatlar va yo'naltirish orqali o'quvchilar kasbiy yo'nalishlarini aniq belgilaydilar.

### 5. Kasbiy mustaqillik:

- Stajirovka va praktik ish tajribasi: Diplom yoki malaka darajasiga erishish uchun o'quvchilar stajirovka yoki amaliy ish tajribasiga ega bo'ladilar.

- Kasbiy sertifikatlar va diplomlar: Malakali mutaxassis bo'lish uchun o'quvchilar belgilangan talablarni bajarib, tegishli hujjatlar oladilar.

Bu bosqichlar orqali o'quvchilarda kasbiy ko'nikma va malakalar tizimli ravishda shakllanadi va mustahkamlanadi. Har bir bosqich o'quvchilarning individual qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda tashkil qilinishi lozim.

Hayot tajribasidan ma'lumki, har qanday yangilik u naqadar yoqimli, qulay va zo'r

bo'lmasin o'zining kutilmagan muammolari bilan kirib keladi hamda bu muammolar o'z o'rnida muntazam olib boriladigan ilmiy izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar

va izchil ko'riladigan chora-tadbirlar vositasidagina bartaraf etiladi. Faqat shu yo'l bilangina kirib kelgan yangilikdan ijobiy natija olish, unga bo'lgan munosabatni ham tubdan o'zgartirish mumkin bo'ladi. Kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik, kasanachilik kabi faoliyat turlari mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga munosib hissa qo'shayotgan bir

paytda yoshlarni qo'shimcha kasbga tayyorlash, hunar o'rgatish butun dunyoda bo'lgani kabi bizning mamlakat yoshlarining har tomonlama shakllanishida ustuvorlik kasb etadi.

Zamonaviy sharoitda kasbga tayyorlash va unga munosabat jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida o'zinig bunyodkorlik, yaratuvchanlik islohotchilik qudratini ko'rsatmoqda. Shu jihatdan olib qaralganda yoshlarni mehnatsevar, tashabbuskor, bugungi kun talablariga javob bera oladigan qilib tarbiyalash, ayniqsa ularda kasb tanlashga ongli munosabatni shakllantirish bugungi kunning muxim talabidir.

Bir qator fiziolog va psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarining ko'rsatishicha, agar o'quvchi o'zi bajarayotgan harakatlarini «gapirib» bajarsa, malakalarning anglanganlik darajasi yanada yuqori bo'lar ekan. Zero, bu o'rinda o'quvchi o'zi bajarayotgan mashqlar jarayonidagi harakatlarni ularni izohlovchi so'zlarni aytish bilan birgalikda bajaradi. Bu birinchi va ikkinchi signal sistemalari funksiyalarining umumlashuviga olib keladi, yo'riqnomada olingan ko'rsatmalarni o'z hissiyotlari bilan bog'lash va o'rganilayotgan harakatning bir butun qiyofasini tasavvur qilishiga olib keladi.

### **Adabiyotlar:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2023 yil 22 dekabr
- 2.Mirziyoyev.Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish

tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy majlis palatalarining qo'shma majlisidagi

nutq.T."O'zbekiston" NMIU. 2016 y.26- bet

3.Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik-T.: Sano-  
Standart, 2017 y.

4. Muslimov N.A., R.G. Mullaxmetov. Kasb tanlashga yo'llash.O'quv qo'llanma.  
Toshkent: O'zbekiston MTB, 2007.

5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

6. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)